

Mansur ibn Nuh II



Mansur ibn Nuh II

Abu Horis

(?-999)

(997-999)

Somoniylar amiri. Uning davrida mamlakatda parokandalik, ichki nizolar (Mansur bilan lashkarboshilar o'rtaida) tashqi xafv (qoraxoniylarning hujumlari) kuchaygan. Ayniqsa, qoraxoniylar tomoniga o'tgan xoin lashkarboshilardan **Foyiq** saroyga nisbatan uyuştirgan fitnalarda faol qatnashadi. 999 yilning fevralida **Foyiq** turk g'ulomlariga suyangan holda Mansurni taxtdan ag'darib, ko'zini ko'r qiladi. Taxtgaga Mansurning ukasi **Abdumalik ibn Nuhni** o'tkazishdi. Bu kuchsizlanib qolgan somoniylar sulolasiga payt poylab berilgan kuchli zarba edi. **Mahmud G'aznaviy** 999 yilning may oyida Mansur uchun o'ch olish shiori ostida Mavarounnahrga qarshi qo'shin tortdi. U somoniylar qo'shinini tor-mor qilib katta o'ljalar bilan G'aznaga qaytdi. Jang oqibatida Xuroson **Mahmud G'aznaviy** qo'liga o'tadi. Yuzaga kelgan bu vaziyatdan qoraxoniylar hukmdori **Elik Nasr** ham foydalanishga harakat qilgan. Shu yili Mavarounnahr qoraxoniylar tomonidan egallangan.

2023-10-29 20:55:21